

# MTM hududida ekologik so'qmoq tashkil etish



**“Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz” mavzusidagi  
ekologik ta’lim va tarbiya bo’yicha parsial dastur uchun  
uslubiy qo’llanma, birinchi nashr**

**Toshkent – 2022 yil**

## Mualliflardan:

Ushbu metodik qo'llanma MTM sharoitida ekologik so'qmoq andozasini yasash va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga yordam beradi. Ushbu qo'llanmani ishlab chiqish jarayonida taqdim etilgan tavsiyalar uchun pedagoglar va ota-onalarga chuqur ehtirom va tashakkurimizni izhor etamiz. Pedagoglar va ota-onalar uning yordami bilan ekologik so'qmoq yaratib, undan bolalarning ekologik ta'lim-tarbiya ishlarida mustaqil ravishda foydalana oladilar, deb umid qilamiz.

### Mialliflar:

Grosheva I.V., Shivaldova N.S., Kuryayeva I.V.

### Taqrizchilar:

|                   |                                                                                                                                                                                      |
|-------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Abdullayeva N.Sh. | Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kafedra mudiri. |
| Pak S.V.          | Toshkent shahridagi Puchon universitetining maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri                                                                                                      |
| Qurbonova N.Sh.   | Toshkent shahridagi 538-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti                                                                                                         |

## Javobgarlikni cheklash:

Ushbu uslubiy qo'llanmadagi fikr va mulohazalar faqatgina uning mualliflarigagina tegishli b'lib, EXHTning O'zbekistondagi loyihalar koordinatori idorasiga, unga bog'liq tashkilotlar yoki uning boshqaruv kengashi a'zolari va ular vakillik qiladigan mamlakatlar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin emas.

"Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz" parsial dasturiga muvofiq ravishda yaratilgan "MTM sharoitida ekologik so'qmoq tashkil etish" uslubiy qo'llanmasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik kengashi ("17" may 2022-yil № 6-sonli bayonnoma), O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya qilingan ( "27" may 2022-yil № 2-sonli bayonnoma).

## Mundarija

|                                                                                         |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish.....                                                                             | 5  |
| Tushuntirish yozuvi .....                                                               | 6  |
| 1-bob. Ekologik so'qmoq – tushuncha va asosiy vazifalar .....                           | 8  |
| 2-bob. Ekologik so'qmoq yaratish – maqsad, vazifa va funksiyalari .....                 | 9  |
| 3-bob. MTM da ekologik so'qmoq tashkil etish bosqichlari .....                          | 10 |
| 4-bob. Ekologik so'qmoq yo'nalishini tanlash.....                                       | 13 |
| 5-bob. Ekologik so'qmoq obyektlari .....                                                | 14 |
| 6-bob. Ekologik so'qmoq pasporti .....                                                  | 17 |
| 7-bob. Bolalar bilan ekologik so'qmoqda ishlashning taxminiy shakl va usullari.....     | 18 |
| 8-bob. MTM ekologik so'qmogida bolalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar .....          | 19 |
| 9-bob. Ekologik so'qmoqda ota-onalar bilan o'zaro munosabatning taxminiy shakllari..... | 20 |
| 10-bob. Ekologik so'qmoqda ekologik ekskursiyalar o'tkazish usullari .....              | 21 |
| 11-bob. Ekskursiya o'tkazish borasidagi tavsiyalar .....                                | 24 |
| 12-bob. Ekologik so'qmoqda foydalaniladigan metodik usullar .....                       | 25 |
| Ilova .....                                                                             | 27 |
| 1-ilova. Taxminiy ekologik so'qmoq .....                                                | 27 |
| 2-ilova. MTM hududidagi ekologik so'qmoqning taxminiy yo'nalishi .....                  | 29 |
| Ekologik so'qmoq yo'nalishining taxminiy chizma-xaritasi.....                           | 29 |
| Ekologik so'qmoq obyektlari va yo'nalish chegaralarining tavsifi .....                  | 30 |
| 3-ilova. Ekologik so'qmoqdagi taxminiy axloq qoidalari .....                            | 47 |

# Kirish

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda – shuni inobatga olish kerakki, ushbu jarayonni amalga oshirishning asosiy sharti bolaning tabiat bilan aloqasi, u bilan bevosita muloqoti hisoblanadi, buning imkoni esa faqatgina MTM ning tarbiyaviy ekologik muhitida mavjud. MTM ning tarbiyaviy ekologik muhitining ajralmas qismi to'g'ri tashkil etilgan ekologik so'qmoq hisoblanadi.

Ekologik so'qmoqda bolalar bilan orttirilgan tajriba ta'lim-tarbiya faoliyatida olingan bilim-ko'nikmalarga muhim qo'shimcha sifatida xizmat qilishi mumkin. Bolalar majmuada olgan bilimlarini amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishlari juda muhim va qadrlidir.

Ekologik so'qmoqda ta'lim va tarbiya o'zaro bog'langan yagona jarayon bo'lib birlashadi. Tabiat muhitida bilim egallash bilan bir qatorda bolalar tabiatdan foydalanishning axloqiy va huquqiy me'yorlari bilan tanishadilar. Ekologik so'qmoqda shaxsning e'tiqodi, uning dunyoqarashini tarbiyalashda zarur bo'lgan fikrlar, his-tuyg'ular va harakatlar uyg'unligi uchun sharoit yaratiladi.

Ekologik so'qmoqda ishlash bolalarda mehnatsevarlik va mehnatni qadrlash ruhida tarbiyalash, bilim olishning hayot bilan, odamlar mehnati bilan aloqasini mustahkamlashda yordam beradi. Bolalar o'zlarining tabiiy-ilmiy bilimlarini oshirib, insonning mehnat va hordiq jarayonidagi atrof-muhit bilan munosabati haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar. Ular o'zlarida mehnat natijasini majmuaviy baholash, inson faoliyatining ekologik oqibatlari borasida taxminlar qilish xususiyatini shakllantiradilar.



# Tushuntirish yozuvi

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolalarning ekologik tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ekologik-o'lkashunoslik tushunchalarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri – bu bolalarning tabiat hodisalari va obyektlarini bevosita kuzata olishi. Shu sababli bolalarga jonli tabiat bilan bevosita muloqot qilish, o'simlik va hayvonlarni kuzatish imkoniyatini yaratish zarur hisoblanadi. MTM maydonida o'sadigan o'simliklar bolalar uchun ma'lumotga boy material, pedagog uchun esa ekologik tarbiyani to'laqonli amalga tatbiq etish imkoniyatini taqdim etishi mumkin

“MTM muhitida ekologik so'qmoq tashkil etish” uslubiy qo'llanmasi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ekologik ta'lim-tarbiya borasidagi “Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz” parsial dasturiga ilova bo'lib, EXHT ning “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan, asosiy maqsadi pedagogik faoliyatning eng dolzarb va ijodiy shakli bo'lmish ekologik so'qmoq bilan tanishtirish hisoblanadi.

Ekologik so'qmoq – bolalar ta'lim-tarbiyasining zamonaviy shakli bo'lib, ekologik ahamiyatli makonda, turli tabiat obyektlari orqali o'tgan yo'nalishda ishlash hisoblanadi. O'simlik va hayvonlar, ularning yashash makonlari, tabiat landshaftlarining o'ziga xos tomonlari va hokazolar bilan tanisha turib, bolalar o'z dunyoqarashi kengaytiradilar, yo'lning mo'ljalini olishni o'rganadilar.

Uslubiy qo'llanmada, pedagogik jamoaning MTM hududida ekologik so'qmoq tashkil etish bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning barcha bosqichlari to'laqonli ravishda taqdim etilgan. Shuningdek, pedagoglar uchun ekologik so'qmoqdagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyat bo'yicha tavsiyalar berilgan.



Uslubiy qo'llanma quyidagi jihatlar bo'yicha pedagoglarni yo'naltiruvchi 12 bob va ilovalarni o'z ichiga oladi:

- Ekologik so'qmoq tushunchasi va asosiy vazifasi – bunda ilmiy asoslangan tushunchalar keltirilgan va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning ta'lim-tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi vazifalariga ta'rif berilgan;
- Ekologik so'qmoq tashkil etish – bu yerda asosiy maqsad, vazifalar va funksiyalar taqdim etilgan va ochib berilgan;
- Ekologik so'qmoq tashkil etishning bosqichlari – bunda MTM hududida ekologik so'qmoq andozasining bosqichlari batafsil tavsiflangan;
- Ekologik so'qmoq yo'nalishini tanlash – ushbu bobda asosiy e'tibor qulaylik, xavfsizlik va tashrif uchun ochiqlikka qaratilishi kerakligi; atrofdagi landshaftning xilma-xilligi va fayzliligi, ma'lumotlarga boyligi borasidagi tavsiyalar taqdim etilgan;
- Ekologik so'qmoqning obyektlari – ekologik so'qmoq obyektlarini tanlash va tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan;
- Ekologik so'qmoq pasporti – pasport va xarita – chizmalar ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar;
- Bolalar bilan ishlashning taxminiy shakl va usullari – bolalar bilan ishlashning taxminiy usullari (ommaviy, kichik guruhlar bilan, yakkama-yakka) va ekologik so'qmoqdagi turli ish shakllari bo'yicha tavsiyalar;
- Ekologik so'qmoqda bolalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar – bu yerda bolalar bilan ishlashdagi pedagogning vazifasi aniqlashtiriladi;
- Ota-onalar bilan hamkorlikning shakllari – tarbiyalanuvchilarning ota-onalari va ularning oilalari bilan hamkorlik borasidagi pedagogning roli belgilangan, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikning taxminiy shakllari keltirilgan;
- Ekologik ekskursiyalar o'tkazish usullari – ekologik ekskursiyalar o'tkazishning har bir bosqichi bo'yicha tavsiyalar berilgan;
- Metodik usullar – har bir yosh davridagi 3-4, 4-5, 5-6, 6-7 yoshli bolalar bilan ishlash usullari tavsiflangan;
- glossariy – umumiy tushunchaga ega bo'lish maqsadida atamalar keltirilgan;
- ilova – bunda ekologik so'qmoqning taxminiy ko'rinishlari, obyektlar ta'rifi va ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, ekologik so'qmoqdagi taxminiy axloq qoidalari keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

# 1-bob. Ekologik so'qmoq – tushuncha va asosiy vazifalar

Ekologik so'qmoq – ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiradigan, bilim orttirishga xizmat qiladigan, rivojlantiradigan, axloqiy, sog'lomlashtiruvchi, tanishtiruvchi vazifalarni bajaradigan, bolalar faol ishtirokchi rolida namoyon bo'ladigan, MTM maydonidagi maxsus jihozlangan yo'nalish.

Ekologik so'qmoqning tarbiyaviy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarni mahalliy tirik va notirik tabiat bilan tanishtirish; ma'lum bir turdagi o'simlik va hayvonot olami vakillari va ularning yashash sharoitlarga moslashish yo'llarini o'rgatish; turli ekotizimlar va o'simlik, hayvonot, olami, yashash muhiti orasidagi ekologik aloqaning namoyon bo'lishini o'rganish; ekotizimlarga inson faoliyati ta'sirini tahlil qilish; tabiat obyektlarini o'rganishning ilmiy usullari bilan tanishish va tadqiqot ishlaridan bilim-ko'nikmalar orttirish.

Ekologik so'qmoqning rivojlantiruvchi vazifasi bolalarda diqqatni, kuzatuvchanlik, xotira, fikrlashni va go'zallikni idrol etishni rivojlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochish.

Tarbiyaviy vazifasi tabiatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Tabiatga bo'lgan muhabbat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi – unu uyg'otish kerak. Bunda bolalarning tabiat bilan bevosita muloqot tajribasi, ayniqsa, muhim. Ekologik so'qmoqda kuzatuv olib borgan bolalar ona tabiatni o'rganib, uning go'zalligiga guvoh bo'ladilar, har bir tur ekologik tizimning muhim bo'g'ini ekanligini anglay boshlaydilar. Barcha tirik va notirik tabiatning birligini anglash asosida to'g'ri shakllangan ongli ekologik axloq yotadi. Ekologik so'qmoqni yaratish va obodonlashtirishdagi umumiy ishlarda qatnashish bolalarni mehnatga o'rgatadi, ularda javobgarlik, o'zgalar hamda o'z mehnatiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hissinı uyg'otadi.

Ekologik so'qmoq o'zining sog'lomlashtiruvchi vazifasini aqliy va jismoniy yuklamalarni tabiat qo'ynidagi hordiq bilan uyg'unlashtirish orqali bajaradi.

Ekologik so'qmoqda harakatlanish davomida bolalar ekologik tizimlar, tabiat obyektlari, jarayonlari va hodisalari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ekologik so'qmoq bo'ylab qilingan ekskursiya bilim, hordiq va tabiat go'zalligidan bahra olishni o'zida mujassam etib, ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi ijobiy his-tuyg'ularning kuchli quvvati bilan ortadi.

## 2-bob. Ekologik so'qmoq yaratish – maqsad, vazifa va funksiyalari

MTM muhitida ekologik so'qmoq yaratish majmuadagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etishga imkon beradi, aynan ekologik so'qmoqda ta'lim va tarbiya yagona jarayonga aylanib ketadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bu yerda nafaqat tabiiy muhit haqidagi ilmiy bilimlarni, balki tabiatdan foydalanish bilan bog'liq axloqiy va huquqiy me'yorlarni ham o'zlashtiradilar.

Ekologik so'qmoq yaratishdan asosiy maqsad – maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni rivojlantirish.

Zamonaviy bolalar tabiat bilan muloqot qilish imkoniyatidan nihoyatda chegaralangan, shu sababli, ishning ekologik ta'lim-tarbiyadagi muhim vazifalaridan biri bolalarni yaqin atrofdagi tabiat obyektlari bilan tanishtirishdir.



### **Pedagog uchun tavsiya:**

MTM da tashkil etilgan ekologik so'qmoq ko'plab pedagogik, psixologik va ekologik vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- Yangi bilimlarni o'zlashtirish, oldin o'zlashtirilgan materiallarni mustahkamlash va boyitish
- o'simliklarni parvarishlash qobiliyati va mahoratini shakllantirish
- tabiat hodisalarining o'zaro bog'liqligini ko'ra olish va xulosalar chiqarish qobiliyati
- axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash o'simliklarni parvarishlash qobiliyati va mahoratini shakllantirish воспитание эстетических чувств
- tabiatga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash
- tengdoshlari bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash
- pedagog va bolalar orasida hamkorlik munosabatlari o'rnatish
- tasavvur, fikrlash, nutq diqqatini rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ekologik so'qmoqda ishlash davomida bolaning hissiy muhitida rivojlanish kuzatiladi, shuningdek, "tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lish haqidagi" bilim va tasavvurlari shakllanadi.



### **Pedagog uchun tavsiya:**

Pedagoglarning ekologik so'qmoq quyidagi asosiy funksiyalarni o'z ichiga olishini unutmasliklari kerak:

- ma'lumot beruvchi
- sog'lomlashtiruvchi
- rivojlantiruvchi
- tanishtiruvchi

Ekologik so'qmoq funksiyasi tabiatshunoslik va o'lkashunoslikka oid bilimlar bilangina chegaralanib qolmay, uning asosiy maqsadi bolalarda tabiatda o'zini tutish madaniyatini tarbiyalash, ekologik dnyoqarashni shakllantirishdan iborat.

# 3-bob. MTM da ekologik so'qmoq tashkil etish bosqichlari

Davlat talablariga <sup>1</sup>, "Ilk qadam"<sup>2</sup> Davlat o'quv dasturiga va "Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz" parsial dasturiga muvofiq ekologik so'qmoq yaratilar ekan, o'z hududingiz va MTM imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiat bilan tanishishidagi zaruriy obyektlarni tanlash va inobatga olish muhim hisoblanadi.



## Pedagog uchun tavsiya:

Ekologik so'qmoq tashkil etish bir nechta bosqichlarda o'tkazilishi tavsiya etiladi:

- Birinchi bosqich – tashkiliy
- Ikkinchi bosqich – yo'nalish va xarita-chizmalarni tuzish
- Uchunchi bosqich – bezatish va obodonlashtirish
- To'rtinchi bosqich – ekologik so'qmoqni ishga tushirish

Pedagoglar maktabgacha yoshdagilar uchun ekologik so'qmoq yaratishning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini yodda tutishlari kerak va quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi: не перегружать фактическим материалом

- faktlarga asoslangan materiallarga ko'mib yubormaslik
- mashg'ulotlarni ma'ruza shaklida o'tmaslik, pedagog obyektni ko'rsatib, u haqida gapiradi, bolalar esa uning monologini jim tinglaydilar.
- so'qmoq obyektlari anchayin xilma-xil bo'lishi kerak. So'qmoqdagi hamma narsaning mukammal bo'lishiga intilish: kuzda to'kilgan barglarni butkul tozalash, yovvoyi o'tlarni yulib tashlash. tavsiya etilmaydi

Unutmang, ekologik so'qmoq – gulzor emas!

Muhimi, unda imkon qadar ko'proq tabiat obyektlari mavjudligi, muhit xilma-xilligi esa tabiatning o'zidagi kabi bo'lmog'i dardkor.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar. Qayd etish. № 3032, 03.07.2018 y.

<sup>2</sup> Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V.G., Abdunazarova N., Is'hakova M., Maktabgacha Ta'lim muassasalari uchun "Ilk qadam" o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr, 3.2- bob, Toshkent-2022

Quyida MTM sharoitida ekologik so'qmoq yaratish borasida uslubiy tavsiyalar taqdim etilgan.

**Birinchi bosqich** – tashkiliy. Bu bosqichda tavsiya etiladi:

- ma'muriyat, pedagoglar, ota-onalar va bolalardan iborat tashabbuskor guruh tuzish;
- oldinda turgan ishdaga har bir shaxsning vazifasi, ish ko'lami, harakatlar tartibi va joyini aniqlab olish;
- ekologik so'qmoq yaratish bo'yicha umumiy reja ishlab chiqish.

**Ikkinchi bosqich** – ekologik so'qmoq yo'nalishini ishlab chiqish va xarita-chizmalarni tuzish. Tashabbuskor guruh MTM hududini mufassil o'rganadi va nisbatan qiziqarli obyektlarni, ularning joylashuvi, axboriy taxtalarning turar joyi, yo'l ko'rsatkichlari, andoza va boshqa bezak unsurlarini belgilab chiqadi. Xarita tuziladi – turli maqsadlar uchun so'qmoq chizmasi, pedagoglarga yordam tariqasida. Bolalar chizma-xaritasida ularga tushunarli bo'lgan ko'rinishdagi obyektlar, harakat yo'nalishini tasdiqlovchi ko'rsatkichlardan iborat kichik ma'lumotlar o'rin oladi. So'qmoqqa bolalar bilan mashg'ulotlarda tuzilgan va tabiatni asrashga qaratilgan turli belgilarni joylashtirish mumkin. Bezatish davomida himoya qilinadigan o'simliklarni qizil rang bilan ajratib ko'rsatish mumkin.

Bolalarning yoshi qancha kichik bo'lsa, chizma ham shunchalik qisqa, ixcham bo'lishi lozim. Masalan, 3-4 yoshdagi bolalar uchun obyektlar yirik, yorqin tasvirlanadi: chizilgan qushcha, daraxt, ochiq rangdagi gullar. Oxirida bu rasmlar bir obyektдан boshqasiga yo'l ochuvchi chiziq – yo'lka bilan birlashtiriladi.

**Uchinchi bosqich** – ekologik so'qmoqni bezatish va obodonlashtirish. So'qmoqda o'rnatiladigan va tayyorlanadigan obyektlar ro'yxati aniqlab olingach, yo'nalishni bezash loyihasi ishlab chiqiladi. Tashabbuskor guruh bir vaqtning o'zida ko'rgazma taxtasi uchun badiiy matnlarni tayyorlash, ekologik so'qmoqda axloq qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Agar bir necha xil ko'rinishlar taklif etilsa, ular orasida eng yaxshisini ovoz berish orqali aniqlash mumkin. Ekologik so'qmoq bezagi uchun yanada ko'proq pedagoglarni jalb etish maqsadida tashabbuskor guruh pedagog, bolalar va ota-onalar orasida har bir obyekt uchun eng yaxshi loyiha, har bir ko'rgazma taxtasi uchun eng yaxshi matn uchun tanlov tashkil etishi mumkin.

Bolalar bilan so'qmoq "xo'jayini" – ertak qahramonini birga tanlash. so'ngra hamkorlikdagi sa'y-harakatlar bilan ekologik so'qmoqni obodonlashtirish ishlarini olib boradilar: chiqindilarni yig'ib, joyni tozalab, loyihaga asosan tayyorlangan barcha obyektlarni tabiat landshaftiga munosib ravishda o'z joylariga o'rnatadilar. Ekologik so'qmoqni bezashda jamoa bo'lib ishlash orqali bolalar rejalashtirish, muammolarni birgalikda hal qilish va o'zaro yordam ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Ekologik so'qmoqni obodonlashtirishda shuni yodda tutingki, uni bezatish birdan-bir maqsad emas, balki yordamchi vosita. Ekologik so'qmoqni ko'pgina lavhalar va reklama taxtachalari ilib tashlangan ko'chaga aylantirish kerak emas. Ma'lumot taxtachalari juda ko'p va qimmatbaho bo'lishi ham shart emas, ularni qo'l ostingizda mavjud materiallardan tayyorlash mumkin.



Eng muhim talab – taxtachalar va yo‘l ko‘rsatkichlari manzara bilan hamohang tushishi lozim. Shuning uchun mahalliy tabiiy materiallardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ekologik so‘qmoqni jihozlashning eng oddiy ko‘rinishi quyidagicha. So‘qmoq boshi va oxiriga nomlar yozilgan ma‘lumotlar taxtasi, yo‘nalish va qoidalar haqidagi kichik axborotlardan iborat chizma-xaritalar o‘rnatiladi. Yo‘nalishning barcha asosiy joyiga obyekt raqamlari va nomlari yozilgan kichik taxtachalar yoki yo‘l ko‘rsatuvchi ustunchalar joylashtiriladi.

Yo‘nalishlar bezatilayotgan paytda ekologik so‘qmoq pasporti va ekskursiya qilinadigan obyektlar tavsifi tuziladi.

**To‘rtinchi bosqich** – ekologik so‘qmoqda ish boshlash. Bu vaqtga kelib ekskursiya uchun ekologik so‘qmoq tayyor bo‘ladi: yo‘nalish jihozlangan, ekskursiya qilinadigan obyektlar tavsifi tayyorlangan, ekologik so‘qmoq pasporti va uning ish rejasi tuzilgan hamda tasdiqlangan. Ekologik bayram o‘rnida ekologik so‘qmoqning ochilish marosimini nishonlash mumkin bo‘ladi.

Tantanali ochilishidan keyin ekologik so‘qmoqda ekskursiyalar va ekologik tadbirlar o‘tkaza boshlaydilar. Ekologik so‘qmoqning tuzilish va ma‘lumot bilan to‘ldirish ishlari davom etaveradi. Vaqti-vaqti bilan bezak obyektlari inventarizatsiyasi va ta‘miri amalga oshiriladi, ma‘lumotlar taxtasidagi matnlar yangilanadi.

## 4-bob. Ekologik so'qmoq yo'nalishini tanlash

Har qanday ekologik so'qmoqning yo'nalishini tanlashning asosiy sharti qulaylik, xavfsizlik va tashrif buyurish uchun ochiq ekanligi; atrofdagi landshaftning fayzli va rang-barangligi, ma'lumotlarga boyligi hisoblanadi.

Ekologik so'qmoq yo'nalishini haddan ziyod uzun qilib yubormaslik tavsiya etiladi. Aks holda ekskursiyaning boshidan yuzaga kelgan charchoq uning samarali o'tishiga halal beradi.

Ekologik so'qmoqda mahalliy tabiatga xos bo'lgan obyekt va ekotizimlarni inobatga olish tavsiya etiladi.

Ekologik so'qmoqdagi namoyish obyektlari tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy obyektlar – bu o'simlik, hayvonot turlari, relyef, tuproq shakllari va boshqa tirik va notirik tabiat unsurlari. Namoyishning tabiiy obyektlariga MTM dagi madaniy landshaft unsurlari – inshootlar, yo'laklar, gulzor, hovuz, ariqlar ham kiradi. Ekologik so'qmoq tarixiy yodgorliklar, bog' kabi mahalliy uyushma (mahalla)larning resurslarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Sun'iy obyektlarga ekologik so'qmoq uchun maxsus tayyorlangan bezak unsurlari – ma'lumot taxtachalari, yo'l ko'rsatkichlari, dam olish maydonlari, andozalar, shiyponcha, ko'prikcha, kamyob va dorivor o'simliklar qo'riqxonasi, tuproq kesmalari, qushlar uchun uya, chumoli inlari kiradi. Bu obyektlar atrofdagi landshaft bilan uzviy bog'liq bo'lishi darkor.





## 5-bob. Ekologik so'qmoq obyektlari

Ekologik so'qmoq tabiiy yoki MTM hududida maxsus yaratilgan obyektlardan tashkil topadi. Bir obyektidan ikkinchi obyektga sayr qilish davomida bolalar o'z xohishi yoki pedagog topshirig'iga ko'ra bolalarga oid turli faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Ekologik so'qmoq yo'nalishi bir obyektidan ikkinchi obyektga soat mili bo'ylab izchil harakatni ifodalaydi va so'qmoqning chizma-xaritasida yaqqol raqamlar bilan ko'rsatilgan bo'ladi.

MTM hududidagi ekologik so'qmoqning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumiy uzunligi katta emas hamda obyektlarning asosiy qismi maktabgacha yoshdagi bolalarning imkoniyatlarini inobatga olib yaratiladi. So'qmoqqa shunday yo'l ochish kerakki, natijada u imkon qadar ko'proq landshaft turlarini, masalan, ariq yoki daryo qirg'oqlari, tepaliklar, belgilangan dala maydonlari va hokazolarni kesib o'tishi lozim. MTM sharoitida bunday rangba-ranglik sun'iy ravishda yaratiladi. so'qmoqda o'simliklar qancha ko'p bo'lsa, hayvonlar xilma-xilligi ham shu qadar ko'p bo'lishi kerak, chunki, hayvonlar ma'lum bir o'simliklar, ozuqa va yashash sharoitlari bilan bog'langan.

Ekologik so'qmoq obyekti sifatida yovvoyi va madaniy o'simliklarning har xil turga mansub vakillari: yo'sin, daraxtlardagi qo'ziqorinlar, eski to'nkalar, chumoli ini, daraxtlardagi qush uyasi, turli tabiiy guruhlarning mikrolandshaftlari (tog', cho'l), gulzor, alohida o'sadigan gullar, hasharotlar doimiy yig'iladigan joylar, kichik suv havzalari, tomorqa, issiqxonalar, yakka toshlar, buloq va hokazolar tanlanadi.

Mukammal holatda butun yo'nalish bo'ylab bolalarga alohida yoki g'uj bo'lib o'sadigan ham yovvoyi, ham madaniy o'simliklar, daraxt, butalar, uyada, daraxtda yoki maxsus yasalgan uylarda yashovchi qushlar, chumoli uyasi, toshlar, sun'iy suv havzalari uchrashi kerak. Qanchalik xilma-xil bo'lsa, shuncha yaxshi. Har bir yoshdagi bolalar guruhlari uchun alohida o'z yo'nalishini tuzish zarur. Ekologik so'qmoq rejasini yasab, yo'nalish boshiga joylashtirgan ma'qul.

## **Yakka o'simliklar:**

- har xil turdagi va boshqa-boshqa oilalarga mansub qari va yosh daraxtlar, butalar;
- tanasi yoki shox-shabbasi noodatiy shaklda bo'lgan (masalan, bukilgan yoki bir necha qismlarga bo'lingan tanaga ega daraxt) namunalar;
- turli o'lchamdagi (yirik va mayda), shakldagi (dumaloq, uchli, o'yilgan va h.), rangdagi (och yashil va to'q yashil), yuza xususiyatiga ko'ra (g'adir-budur, serajin, silliq) bargli o'simliklar;
- qurigan qari daraxtlar (tik turgan yoki yerda yotgan holatdagi (bittadan ko'p bo'lmagan), to'nkalar; o'tsimon yirik o'simliklar (qariqiz).

## **O'simlik guruhlari:**

- Tog', cho'l landshaft qismlari;
- o'ziga xos vakillarga ega o'simliklar. Bular yovvoyi chakalaklar ham, pedagog va bolalar tomonida maxsus ekilgan o'simliklar ham bo'lishi mumkin. MTM maydonida momaqaymoq o'tlog'ini, bedazor va boshqa turdagi o'tlarni ko'rish ehtimoli ham bor. Sun'iy suv havzalari yaqinida turli tuman qirg'oq bo'yi o'simliklari o'sadi. Bunday obyektlarga o'simliklarning sun'iy guruhlari – bog' maydonlari, tomorqalarni kiritish mumkin.

## **Turli hayvonlar va ular faoliyati nishonasini uchratish mumkin bo'lgan hududlar:**

- tabiiy va sun'iy uyalash joylari, qush oxurlari ("qushlar uchun simyog'och"), chumoli inlari, yomg'ir chuvalchaglari uchun yer uyachalari va ular tomonidan chiqarib tashlangan tuproq uyumi;
- hasharotlarning (masalan, bahorda chumolilarni kuzatish mumkin), sun'iy suv havzalarida istiqomat qiluvchilarning mavsumiy to'planishi

## **Notirik tabiatning qiziqarli obyektlariga ega hududlar:**

- jarlik, yirik toshlar yoki toshlar yig'indisi, bitta joyda to'planadigan katta ko'lmak;
- qishda qorlarni ma'lum joyga uyum qilib yig'ish, sumalaklarni kuzatish uchun maydoncha ajratish;
- bahorda tuproqni kuzatish uchun joy ajratish yaxshi natija beradi.

## Maxsus jihozlangan maydonchalar:

- Shamol kuchi va yo'nalishi, havo harorati, yog'in miqdori (yomg'ir, qor), Quyoshning tikkaga kelish balandligi (quyosh soatlari)ni kuzatish uchun meteomaydoncha;
- Ertaklar o'tlog'i (ertak qahramonlari haykallari, binolari).
- Qushlar uchun donxo'rak, oxur.
- Oddiy va alohida vazifaga ega gulzorlar (soat-o'simliklar, barometr-o'simliklar bilan).
- Sabzavot va dorivor giyohlardan iborat tomorqa, boshqoli o'simliklarni ekish (dala), issiqxona yaratish.
- Inson ta'sirining nishonasi yaqqol sezilgan hududlar (ham ijobiy, ham salbiy): dam olish joyi, qush oxurlari, toptalgan maydonlar.



## Pedagog uchun tavsiya:

MTM hududida ekologik so'qmoq yaratar ekansiz, unutmang:

- Keltirilgan barcha obyektlar xavfsizlik talablariga javob berishi lozim;
- Ekologik so'qmoq obyektlari tanlashning asosiy mezonlari – unga imkon qadar xilma-xil va bola e'tiborini tortadigan obyektlar kiritish, maktabgacha yoshdagilar uchun mosligi;
- MTM hududida mavjud obyektlarni ham kiritish mumkin, keyinchalik imkon bo'lganda, so'qmoqni yangilari bilan to'ldirish, daraxtlar ekish, suv havzalari va boshqa obyektlar hosil qilish mumkin.



## 6-bob. Ekologik so'qmoq pasporti

MTM hududida ekologik so'qmoq yaratishning muhim talabi uning pasportini tuzish hisoblanadi.



### Pedagog uchun tavsiya:

Bolalar uchun xarita chizmasini ishlab chiqishda shuni yodda tutish zarur:

- ishlanmaga bolalar e'tiborini tortish;
- obyektlarni belgilash ustida ishlashdagi oddiylilik;

### Pedagoglar uchun:

- obyektlar tavsifi;
- obyektlar rasmidan foydalanish tavsiya etiladi;
- obyektlarning qisqacha ta'rifi, qisqa ma'lumotlar, alohida varaqlarda surat yoki obyekt rasmlari (turli fasllarda olingan bir nechta suratlar bo'lsa yanada yaxshi) birlashtiriladi, masalan, daraxtni ta'riflaganda unga biologik va ekologik tavsif berish mumkin, uning tarqalish xususiyatlari, kelib chiqish nomi, boshqa o'simliklar va hayvonlar bilan o'zaro aloqasi, odamlar hayotidagi ahamiyati, uning qiyofasini topishmoq, she'r, maqol sifatida ifoda etish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ra'lim-tarbiya faoliyatida, ota-onalar bilan bo'ladigan ma'rifiy ishlarda obyektidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar.

Ekologik so'qmoqning taxminiy pasport chizmasi

|                                                                                 |
|---------------------------------------------------------------------------------|
| Ekologik so'qmoq nomi                                                           |
| Ekologik so'qmoqning maqsad va vazifalari                                       |
| Joylashuvi                                                                      |
| Yo'nalishning qisqacha ta'rifi, uning davomiyligi, obyektlar orasidagi masofasi |
| Foydalanish tartibi (yil davomida, iliq fasllarda)                              |
| Obyektlar tavsifi                                                               |
| Ekologik so'qmoq jihozlari ro'yxati                                             |
| Bolalar qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari va yong'inga qarshi talablar     |
| Ekologik so'qmoq parvarishi uchun zaruriy tadbirlar                             |
| Mas'ullar                                                                       |
| Ilova.Yo'nalishning xarita-chizmasi                                             |

## 7-bob. Bolalar bilan ekologik so'qmoqda ishlashning taxminiy shakl va usullari

MTM maydonida joylashgan ekologik so'qmoq barcha bolalar va pedagoglarga jonli tabiatning turli obyektlarini doimiy kuzatish va ular bilan muloqotda bo'lish imkonini beradi. Ekologik so'qmoqda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil eta turib, bolalar bilan ishlashning turli shakl va usullarini o'ylab topish muhim sanaladi. MTM pedagogi uchun ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish shakllarining keng turidan foydalanish tavsiya etiladi. Jadvalda bolalar bilan ekologik so'qmoqda ishlashning har xil shakl va usullari taqdim etilgan.

| Taxminiy ish usullari                                                                                                     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'yinli ta'lim                                                                                                            |
| Ommaviy                                                                                                                   |
| Kichik guruhlariga bo'linib                                                                                               |
| Yakka tarzda                                                                                                              |
| Taxminiy ish usullari                                                                                                     |
| Ekologik suhbatlar                                                                                                        |
| Kuzatuvlar                                                                                                                |
| Ekskursiyalar                                                                                                             |
| Laboratoriya (tajriba va sinovlar)                                                                                        |
| Maqsadli sayrlar                                                                                                          |
| Tabiat qo'ynida mehnat                                                                                                    |
| Ekologik tanlovlar, viktorinalar                                                                                          |
| Tabiatni asrashga qaratilgan aksiyalar                                                                                    |
| Ekologik vaziyatlarga oid vazifalarni yechish                                                                             |
| Badiiy adabiyot mutolaasi (obyektlar, jonajon o'lka tabiati haqida she'rlar, xalqona alomatlar, maqol, hikoyalar yodlash) |
| Vaziyatlarni muhokama qilish va o'ynash                                                                                   |
| Kolleksiyalash (gerbary tuzish, "Tabiatning Qizil kitobi")                                                                |
| Ekologik bo'sh vaqt, vaqtichog'lik, bayramlar                                                                             |

## 8-bob. MTM ekologik so'qmogida bolalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar



### Pedagog uchun tavsiya:

Ekologik so'qmoqdagi faoliyatni tashkil etishda pedagog oldida quyidagi vazifalar turadi:

- Bolaning tabiat bilan muloqotini bola uchun ham, tabiat uchun ham xavfsiz qilish;
- Yaqin o'rtadagi tabiat bilan muloqotda bo'lish va bolalarni toza havoda sog'lomlashtirish uchun sayrdan foydalanish;
- Kuzatuvdan foydalanib, bolalarga jonli tabiatning turli obyektlarini tanishtirish va uning atrofdagi olam bilan o'zaro bog'liqlikini ko'rsatish;
- Har bir bolada ta'sirchanlik sifatlarini rivojlantirish uchun jonli tabiatni kuzatishdan foydalanish;
- Tabiatga yaqinlik va barcha tiriklikka qayg'udosh bo'lish, tabiatga nisbatan g'amxo'rlik va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hissini shakllantirish;
- Tabiat bilan muloqotdan keyin paydo bo'ladigan taassurotlarni rasmlar, qo'lda yasalgan buyumlar, hikoya va boshqa ijodiy ishlar orqali yetkaza olish qobiliyatini shakllantirish;
- Ekologik so'qmoqda turli yil fasllarini kuzatish, o'yinlar, ekskursiyalar, tadqiqotlar, teatrlashtirilgan mashg'ulotlar, sinov va tajribalar hamda bolalarga oid boshqa faoliyat turlarini o'tkazish.



## 9-bob. Ekologik so'qmoqda ota-onalar bilan o'zaro munosabatning taxminiy shakllari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'lim-tarbiyasini ota-onalar va ularning oilalarini bu faoliyatga jalb qilmasdan turib amalga oshirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. MTM dagi pedagogning bu boradagi roli maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari bilan hamkorlik munosabatlarini har xil faoliyat turlari orqali tashkil etish va buning uchun zaruriy sharoitlarni yaratishdan iborat. Jadvalda ota-onalar bilan hamkorlikning taxminiy shakllari keltirilgan.

| O'zaro munosabatning taxminiy shakllari                                                                                                                                                                                                         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ekologik so'qmoqning yo'nalishini ishlab chiqish                                                                                                                                                                                                |
| Bolalar bilan birgalikda ekologik loyihalarda ishtirok etish                                                                                                                                                                                    |
| Roliklar va taqdimotlar yaratish                                                                                                                                                                                                                |
| Tanlovlarda ishtirok etish                                                                                                                                                                                                                      |
| Ekologik so'qmoqning obodonlashtirish ishlarida qatnashish (gullar, o'simliklar, daraxt va butalar ekish, tomorqa va issiqxonalar tashkil etish, bolalar faoliyati uchun oddiy jihozlar tayyorlash, tajribalar, kuzatuvlar, o'yinlar o'tkazish) |
| Fotoko'rgazmalar                                                                                                                                                                                                                                |
| Mitti kitobchalar tayyorlash                                                                                                                                                                                                                    |
| Tabiiy materiallardan turli buyumlar yasash                                                                                                                                                                                                     |
| Birgalikda ekologik aksiyalarda qatnashish: <ul style="list-style-type: none"><li>• "Daraxt ek"</li><li>• "Qishda qushlarni oziqlantir"</li><li>• "Yer kuni"</li><li>• "O'simliklar o'stir"</li></ul>                                           |

# 10-bob. Ekologik so'qmoqda ekologik ekskursiyalar o'tkazish usullari

Har qanday ekskursiyaning samarasi uning to'g'ri tashkil etilganligi va o'tkazish usuliga bog'liq. Metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ekskursiya qatnashchilarga tabiatdagi shunchaki alohida obyekt va hodisalarni emas, balki tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yaxlitlikni ko'rishga muvaffaq bo'ladilar.

Ekskursiya o'tkazish usullari bolalarga materialni tushunish va o'zlashtirishga yordam berishga yo'naltirilgan. Pedagogning ekologik so'qmoqdagi ekskursiyaga jiddiy tayyorgarligi – uning samaradorligi garovi.

Ekologik ekskursiya bir nechta bosqichlardan iborat:

- Ekskursiyaga tayyorlanish;
- Ekskursiyani o'tkazish;
- Xulosalar chiqarish;
- Keying ekskursiya materialini ishlash va natijalardan ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish



## **Pedagog uchun tavsiya:**

Har bir ekskursiyaga oldindan tayyorlanish va quyidagilarni aniqlab olish tavsiya etiladi:

- mavzu;
- maqsad;
- joy;
- ekskursiya o'tkaziladigan vaqt;
- bolalarning mustaqil faoliyati uchun topshiriqlar, namoyish obyektlari;
- ekskursiya rejasini shunday o'ylash kerakki, u maksimal darajada ma'lumotlarga boy bo'lishi lozim;
- uning konspekt-rejasini, shuningdek, zaruriy materiallar va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxatini tuzish

Konspektda har bir mavzuni ochib berishga va bolalar bilan bajariladigan mustaqil ishlarga ketadigan vaqt daqiqalarda ko'rsatilishi lozim. Imkon qadar har bir lahzani oldindan mo'ljallash tavsiya etiladi: kirish so'zi, obyektlar namoyishi, pedagog hikoyasi, yo'nalish bo'ylab obyektidan obyektga harakatlanish, bolalarning mustaqil kuzatuvlari va tadqiqotlari, namunalar to'plash, savollarga javoblar, hordiq, xulosalar chiqarish, ekskursiyadan qaytish.

Pedagogga ekskursiya yo'nalishini oldindan bosib o'tish, asosiy va ikkinchi darajali kuzatuv obyektlarining barchasini belgilash, to'xtash joylarini aniqlash, soat bo'yicha harakatlanish jadvalini tekshirish. Kuzatish uchun bolalar to'xtaydigan joyni aniqlashda quyosh holatini (quyosh nuri ko'zga tushib, obyektни tomosha qilishga halal bermasligi uchun) inobatga olish darkor. Issiq faslda to'xtash uchun imkon qadar soya-salqin joyni tanlash lozim. Agar yo'nalish yetarlicha o'ylanmagan va o'rganilmagan bo'lsa, ekskursiya vaqtida mavzuni ochib berish uchun muhim bo'lgan obyektlar yoq'ligi kabi yoqimsiz syurprizlarga duch kelish mumkin. Natijada ekskursiya maqsadiga to'laligicha erishib bo'lmaydi.

Ekskursiyaga bir-ikki kun qolganda pedagog bolalarga ekskursiya mavzusi hamda vazifasini xabar qilishi, mustaqil ish uchun topshiriqlarni tanlash imkoniyatini (yakka yoki kichik guruhlariga bo'lingan holda) berish (agar bola tanlovda qiynalsa, unga maslahatlar bilan yordamlashish), axloq qoidalari haqida suhbat o'tkazish tavsiya etiladi. Kuzatuvlarni yozib borish uchun kerak bo'ladigan qog'ozlarni ham oldindan tayyorlash zarur.

Ekskursiya vaqtini rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini ham inobatga olish darkor. Agar ma'lumotlarga ko'ra, yomon ob-havo kutilayotgan bo'lsa, u holda ekskursiya keyinga qoldiriladi.

Ekskursiya avvalida pedagog uning mavzusi, maqsad, vazifalari, qilish lozim bo'lgan kuzatuvlar, harakat tartibi, zaruriy yozuvlar, yo'nalishda axloq qoidalari haqida qisqacha gapirib o'tadi. Bu kirish qism juda muhim bo'lib, u bolalarga aniq ko'rsatma beradi va butun ekskursiyaning qanday siljishini aniqlashtiradi. Kirish so'zini me'yorida qisqa va aniq o'tkazish, shuningdek, bu suhbatni yo'nalishning boshlang'ich nuqtasida olib borish tavsiya etiladi. Agar yaqin masofada namoyish uchun mos obyekt joylashgan bo'lsa, ayni muddao, pedagog o'z so'zlarini darrov aniq material bilan mustahkamlab, ekskursiya boshidanoq bolalarni qiziqtirib qo'yadi.

Pedagogning guruhni yo'nalish bo'ylab harakatlanishini ularning mustaqil ishlashi bilan mos ravishda olib borish qobiliyati ekskursiya metodikasining muhim qismi hisoblanadi. Pedagog bolalarni mustaqil kuzatish, eshitish, sezishga o'rgatishi kerak, ekskursiya qatnashchilarining o'zlari tadqiqotchiga aylanganlaridagina jonli tabiatni o'rganishga bo'lgan haqiqiy qiziqish paydo bo'ladi.

Ekologik so'qmoq bo'ylab olib borilgan ekskursiya vaqtida turli obyektlarni to'g'ri namoyish etish katta ahamiyatga ega. Ekskursiyadagi obyektlar namoyishida har xil usullar qo'llash obyektни atrof-muhitdan ajralib chiqib, uni turli tomonlardan, yaxlit va mufassal ko'rish, uni kuzatish va o'rganish imkonini beradi.

Ekskursiyada doimo mayda obyektlarni – hayvon izlari, hasharotlar, mayda o'simliklar, urug', barg va hokazolarni namoyish etish tavsiya etiladi. Buning uchun pedagog atrofida butun guruh jamlanishini kutish tavsiya qilinadi. Namoyishga kirishishdan oldin o'z atrofida diametri ikki metr bo'lgan xoli aylana hosil qilish kerak. Ekskursiya qatnashchilari qay darajada ko'p bo'lsa, aylana shu darajada keng bo'lishi zarur. Agar namoyish obyekti yerda (chumoli ini, uya, hayvon izlari, o'simliklar) joylashgan bo'lsa, bosib yubormasliklari uchun bolalarni ogohlantirish kerak.

Mayda obyektlarni ko'rsata turib, pedagog yig'ilgan bolalarning ko'z oldidan ularni aylana bo'ylab, sekinlik bilan olib o'tadi. Har bir bolada obyektни batafsil ko'rish talabi bo'lsa, uni shaffof banka (probirka, quti, xalta)ga solib, aylana bo'yicha qo'lma-qo'l qilinadi.

Ko'rikdan keyin obyekt pedagogga qaytarilishi tavsiya etiladi. Ekologik ekskursiyaning bosh qoidasi – pedagog tabiatga ehtiyotkorona yondoshish bo'yicha hamisha o'z tarbiyalanuvchilariga namuna bo'lib xizmat qilishi lozim.

Cho'zilmasdan, yetarli darajada zich bo'lib yurish kerak. Oldinda ketayotgan pedagog obyektни payqaganda guruhni to'xtatadi va barcha bolalar ko'ra oladigan qilib uni namoyish etadi. To'xtalganda jimlik hukm urishi lozim. Bunga bolalarni har doim o'rgatish kerak.

Ekskursiya vaqtida pedagog beto'xtov gapirishi kerak emas. Hikoyasining alohida qismlari orasida bolalar ustozidan eshitgan va o'z ko'zlari bilan ko'rganlarini o'ylab olishlari uchun tanaffuslar bo'lgani ma'qul. Bu to'xtashlar olingan taassurotlar va ma'lumotlarni xotirada mustahkamlab, tahlillar va xulosalarni shakllantirish uchun juda zarur. Pedagog ekskursiyada oddiy bayon qilish va obyektlarni namoyish etish bilan chegaralanib qolmasligi tavsiya etiladi, yo'nalish davomida imkon qadar bolalarni faol va ijodiy ishlarga, aniq vazifalarga va ularni mustaqil hal qilishlariga jalb qilish kerak.

Har bir obyekt qarshisida bir necha daqiqa mustaqil kuzatuv olib borishlari lozim. Bundan tashqari, ekskursiyada vaqti-vaqti bilan bolalarga guruh bo'lib ishlanadigan vazifalar (masalan, mevali daraxtni ko'rikdan o'tkazish, undagi zararkunanda hasharotlarni qidirib topish) beriladi. Ekskursiya davomida pedagog oldindan rejalashtirilgan jadvalni sezdirmaygina soati bilan taqqoslab, ajratilgan vaqtda yig'ishtirilish zarur hisoblanadi.

Yo'nalish yakunida ko'rilganlar haqida bolalarning jamoaviy hikoyasi asosida pedagogning tushuntirish va to'ldirishlari bilan qisqa xulosa yasash mumkin. Suhbat yoki ekologik o'yin o'tkazilsa ham bo'ladi.

# 11-bob. Ekskursiya o'tkazish borasidagi tavsiyalar



## **Pedagog uchun tavsiya:**

Ekskursiya o'tkazishda pedagog quyidagilarni yodda tutishi zarur:

- Ekskursiyaga oldindan puxta tayyorlanish kerak.
- Ekskursiyada ko'rsata olishingiz mumkin bo'lgan narsa haqidagina gapiring.
- Bolalarning qiziqishini yo'qotmaslik uchun o'sha mavzuga oid narsalar haqida gapiring.
- Uzundan-uzoq tushuntirishlardan qoching.
- Agar batafsil tushuntirish talab etilsa, bunga ekskursiyaga tayyorlanishda yoki ekskursiyadan keyin vaqt ajrating.
- Ekskursiya paytidagi hikoya qisqa, aniq va lo'nda bo'lishi, kuzatilayotgan yoki o'rganilayotgan obyekt bilan mos tushishi kerak.
- Ekskursiya mavzusini mahkam ushlang va mavzudan tashqaridagi savollarga chalg'imang.
- Bolalarga obyektlarni to'g'ri ko'rsatishni biling va ularni to'g'ri kuzatish va tadqiq etishni o'rgating.
- Hammaga hamma narsa yaxshi ko'rinishi kerak.
- Har bir bola o'rganilayotgan obyektни yaqindan kuzatishi, teginishi, qo'l bilan ushlab ko'rishiga harakat qiling
- Bolalar hamma narsani ko'rib chiqishga ulgurishlari uchun vaqtni hisoblang.
- Bolalarga shunday vazifalar beringki, ular faol qatnashchi va tinglovchi bo'lsin, ularni ekskursiya paytida mustaqil bajarsin, ekskursiyaga o'yin qismlarini ham kiring.
- Bolalarni charchatmang – charchoq tufayli e'tibor va qiziqish yo'qoladi.
- Barcha qatnashchilar ekologik so'qmoq qoidalariga amal qilishlarini kuzating. Pedagog – tabiatga nisbatan g'amxo'rlikning namunasi.
- Ekskursiya materialini uning keyingi muhokamalar bilan mustahkamlash. Ko'rganlarini batafsil tushuntirib, ekskursiya paytidagi ma'qul kelgan savollar bilan to'ldirib, bolalar xotirasida ekskursiya jarayonini tiklang.
- Shu tariqa olingan taassurotlar yaxlitlik kasb etadi. Keyinchalik maktabgacha yoshdagilar bilan ekskursiyaga oid ishlar fan va tabiat markazida kuzatuv, ko'rgazma, ekologik o'yin va viktorinalar shaklida o'tkazilishi mumkin.

# 12-bob. Ekologik so'qmoqda foydalaniladigan metodik usullar

Ekologik so'qmoq bolalar bilan ekologik faoliyat uchun qilinadigan oddiy sayrlardan unumli foydalanish, shu bilan birga, bolalarning yoshidan qat'iy nazar, toza havoda ularni tabiat bilan tanishtirish imkonini beradi. Turli vaqtda turli obyektlarni borib ko'rish mumkin. Hatto bir xil obyektlarni sayr uchun turli fasllarda borib ko'rish ham ma'qul snaladi.

Ekologik so'qmoqdagi faoliyat har bir yoshdagi guruhlarda ma'lum tarkib va metodik usullarni o'z ichiga oladi.

**3-4 yoshli bolalar** atrof-muhit bilan kattalar va katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar yordamida tanishadi. Bu kuzatuv, ekskursiya, didaktik o'yinlar, tabiat haqidagi bosma rasm va suratlarni ko'rish, badiiy adabiyotni o'qish, she'rlar yodlash orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari bolalar ba'zi o'simliklar: piyoz, no'xat, dukkaklilarni yeishtirish bo'yicha bilimga ega bo'ladilar.

**4-5 yoshli bolalar** uchun ekologik tarbiya ishlari aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Tabiat hodisalarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatish, bolalarni o'simlik va hayvonlarga qo'ldan kelgancha yordam ko'rsatishga rag'batlantirish, tabiatdagi axloq qoidalarini mashq qilish kabi vazifalar qo'yiladi. Olingan barcha bilimlar guruhdagi ta'lim-tarbiya ishlarida mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan daraxtlar, o'simlik va hayvonlar haqida topishmoqlar tuzish, maqollar yodlash, xalqona alomatlarini o'rganish, dorivor o'simliklar bilan tanishtirish, ularni yig'ib olishga jalb etish mumkin. Mehnat faoliyati davomida bolalar tabiiy materiallardan sovg'alar yasashni o'rganadi.

**5-6 yoshdagi bolalar** uchun ekologik ta'lim-tarbiya ishlari barcha ta'lim-tarbiya faoliyatlari tizimiga kiritiladi. Ekologik so'qmoqdagi ekskursiya anchayin davomiy bo'ladi, yozda sayr uchun ajratilgan vaqtdan foydalanish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish, tabiatni asrash, mehnat qilish va badiiy faoliyatini tashkil etish ko'zda tutilgan.

**6-7 yoshli bolalar** ekologik so'qmoqning haqiqiy ho'jayiniga aylanadilar. Ular ekskursiya rahbari rolida ham bo'la oladilar. Tabiatga mas'uliyat bilan yondoshishni tarbiyalashda "Yashil patrul" kuzatuv nuqtasini yaratish yordam beradi. Bolalar katta targ'ibot ishlarini ham olib boradilar: tabiat qo'ynidagi axloq qoidalari haqida suratlar chizadilar, badiiy-musiqaviy kompozitsiyalar tayyorlaydilar va ularni ota-onalar, MTM mehmonlari qarshisida ijro etadilar. Bu yoshdagi bolalar allaqachon daraxtlarni davolay biladilar.

Bolalarning so'qmoqdagi faoliyatga qiziqishlarini orttirish uchun (ayniqsa 3-4 yoshlilarni) pedagog ular bilan birgalikda "so'qmoq ho'jayini (yoki bekasi)" ertak qahramonini (Gnom, Bo'taloq va b.) tanlaydi.

Bolalar va ota-onalar o'rtasida oldindan tanlov o'tkazish ham mumkin: kim "so'qmoq ho'jayini" roliga eng qiziqarli qahramon taklif etadi. Bu qahramon so'qmoqda mashg'ulotlar o'tishga yordam beradi, uni barcha lavhachalarda, xususan, boshlang'ich (bolalarni "kutib oladigan") va yakuniy (bolalar bilan "xayrlashadigan") nuqtalarda aks ettirish mumkin. Vaqti-vaqti bilan bu qahramon "jonlanib", bolalarga vazifalar yozilgan maktub yo'llaydi, teatrlashtirilgan bayramlarda ishtirok etadi.

Shu tariqa, ekologik so'qmoqda bolalarning yoshidan qat'iy nazar, kuzatuvlar, o'yinlar, turli ko'rinishdagi ishlarni va ekskursiyalar olib borish mumkin. Bu holatda yaxlit munosabatni yodda tutish zarur. Bolalar ko'rganlari haqidagi taassurotlarni keyinroq turli ishlarda ifoda etadilar.

## Glossariy

**iqlim** – ma'lum bir hudud uchun xos bo'lgan, har yili takrorlanadigan ob-havo tartibi;

**landshaft** (nem. landschaft, ot land – yer va schaft – o'zaro bog'liqlik manosini beruvshi so'z yasovchi qo'shimcha) – kelib chiqishi va rivojlanishi, o'ziga xos tabiiy boyliklari mavjud bo'lgan hududiy ko'rinish, bir turdagi muayyan maydon;

**yo'nalish** (nem. marschrout, frans. marche – oldinga yo'l, harakat va route – yo'l) – harakat yo'nalishini geogragik belgilarga yoki koordinalarga nisbatan nazarda tutadigan, boshlang'ich, yakuniy va oraliq nuqtalarni (agar bo'lsa) ko'rsatuvchi, obyektga olib boruvchi yo'l;

**relyef** (fr. relief, lot. relevo "ko'taraman") – yer yuzasining tashqi ko'rinishi, shakli, o'lchamlari, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixiga ko'ra, qattiq yer yuzasining xilma-xil notekisliklari va boshqa qattiq jismlar yig'indisi;

**yashash muhiti** – hamma tirik organizmlar bilan bevosita va bilvosita munosabatda bo'luvchi barcha jism va hodisalar (tabiiy va antropogen). Muhit barcha ekologik omillarni o'z ichiga oladi;

**issiqxona** – yorug'lik tushadigan gumbazli, himoyalangan tuproq inshootini ifodalovchi, ertaki ko'chatlar (karam, pomidor, bodring, gullar) ni yetishtirish uchun mo'ljallangan, u yoki bu ko'chatni keyingi ekishda ochiq tuproqqa yoki to'liq davr mobaynida issiqxona gumbazi ostida yetishtirish imkonini beruvchi, isitiladigan yoki avtonom yillik issiqxona;

**fitosenoz** (qadimiy yunon. φυτόν "o'simlik" + κοινός "umumiy") – bir jamoa bo'lib yashaydigan o'simliklar majmuasi. N. Barkmanga ko'ra, fitosenoz ichki floristik tavofutlari atrofdegilarining farqlaridan kam bo'lgan o'simliklarning muayyan bo'g'ini;

**ekotizim** – tirik organizmlar va ular yashaydigan muhit tomonidan hosil bo'lgan, barcha tarkibiy qismlari moddalar almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy yoki tabiiy-antropogen yaxlit majmua. Ekotizimlarning muhim xususiyati ularning chidamliligi va o'zini-o'zi tartibga solishi hisoblanadi.



# Ilova

## 1-ilova. Taxminiy ekologik so'qmoq

Har bir MTM o'zining, shuningdek, hududiy, jo'g'rofiy va iqlimiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'z maydonida ekologik so'qmoq yarata oladi. Shuni yodda saqlash kerakki, so'qmoq barcha xavfsizlik talablariga javob berishi, u yerga sog'lik uchun xavfli o'simliklar, daraxt va butalar ekilmasligi darkor.

Quyida ekologik so'qmoqning taxminiy ko'rinishlari keltirilgan.

### 1-ko'rinish



### 2-ko'rinish




## 2-ilova. MTM hududidagi ekologik so'qmoqning taxminiy yo'nalishi

Ekologik so'qmoq tashkil etishda har bir MTM imkoniyatlarini, shuningdek, hududiy, jo'g'rogiy va iqlimiy xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi. Ushbu ilovada MTM da barpo qilish mumkin bo'lgan taxminiy yo'nalish tavsifi keltirilgan. Ekologik so'qmoq faoliyatini tashkil etishda pedagoglar ekologik so'qmoqni turli obyektlar bilan to'ldirishlari mumkin.


| Yo'nalishning taxminiy tavsifi<br>Yo'nalishda 17 ta obyekt joylashgan |
|-----------------------------------------------------------------------|
| Yo'nalish boshi "Ekologik so'qmoq xo'jayini Bo'taloq"                 |
| "Meteomaydon"                                                         |
| "Alp tepaligi"                                                        |
| "Suv havzasi"                                                         |
| "Yashil dorixona"                                                     |
| "Gullar dalasi"                                                       |
| "Hasharotlar"                                                         |
| "Teraklar xiyoboni" yoki "Daraxtlar xiyoboni"                         |
| "Tabiat laboratoriyasi"                                               |
| "Qushlar shaharchasi"                                                 |
| "Tomorqa"                                                             |
| "Issiqxona"                                                           |
| "Ertaknamo karvonsaroy"                                               |
| "Salomatlik so'qmog'i"                                                |
| "G'aroyib to'nkalar olami"                                            |
| "YHX va velosiped yo'lagi"                                            |
| Yo'nalish oxiri "Shoxdevor"                                           |

# Ekologik so'qmoq yo'nalishining taxminiy chizma-xaritasi

## 1-ko'rinish



## 2-ko'rinish



# Ekologik so'qmoq obyektlari va yo'nalish chegaralarining tavsifi

## 1-Obyekt. "Bo'taloq ekologik so'qmoq xo'jayini"

Taxminiy ko'rinish:



Bu yerda so'qmoq chizmasi joylashgan.

Bolalar so'qmoq obyektlari, axloq qoidalari bilan tanishadilar.

Bolalarni ko'chada ekologik so'qmoq ho'jayini - Bo'taloq kutib oladi.

Bolalar bo'taloqqa maslahat so'rab murojaat qilishlari, yangi bilimlar, tabiatga tegishli barcha qiyin savollarga javob olishlari mumkin.

Vaqtı-vaqtı bilan bu qahramon "jonlanadi", bolalarga topshiriqlar-xatlar yo'llaydi, teatrlashtirilgan bayramlarda qatnashadi. bolalarning so'qmoqdagi ishlariga yordam berib, yo'nalish bo'ylab ekskursiya o'tkazadi.

Ertak qahramoni cho'ntagiga bolalar uchun vazifalar – Bo'taloqning murojaati oldindan solib qo'yiladi.

Ertak qahramoniga yordam berganlarida u o'z so'qmog'ida syurprizlar – quruq mevalar, daraxtlarda yoki o'z uyasida yong'oqlar qoldiradi



## 2-Obyekt. "Meteobekat"

### Taxminiy ko'rinish:



Oddiy anjomlar (shamol pirpiragi, quyosh soati, termometr, barometr, flyuger uskunasi) bilan jihozlangan meteobekat bolalarga ob-havo holatini oldindan aytishning boshlang'ich bilimlarini o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Uzun metall tayoqda shamol yo'nalishining o'zgarishini kuzatishga imkon beruvchi flyuger o'rnatiladi

Shamol yo'nalishini ko'rsatuvchi asbob ham shu yerga joylashtiriladi.

Yog'in miqdorini o'lchash uchun plastik idishlardan yomg'ir o'lchagichlar qilinadi. Ular so'qmoqning turli nuqtalariga joylashtiriladi, qayerga yog'ingarchilik ko'p bo'lishi solishtiriladi va nega bunday ekanligi tahlil qilinadi (ochiq joy yoki daraxt shox-shabbalari orasida).

Havo harorati o'zgarishini o'lchovchi termometrlarning biri soyada, boshqasi quyoshga qo'yiladi.

Quyosh soatlari esa vaqtni aniqlaydi.

### 3-Obyekt. «Alp tepaligi»

Taxminiy ko'rinish:



Alpinariy – boshqa yuzalardan baland bo'lgan landshaftli kompozitsiya bo'lib, tirkak devorlar, kichik suv moslamalari bilan hamohang tarzda tabiiy va sun'iy relief ustiga quriladi.

Alpinariy uchun tog' landshaft o'simliklar xos bo'lib, tirik va notirik tabiat bilan uyg'unlashtiriladi.

Biz tomondan yaratilgan "alpinariy" turli o'simliklarga boy tog' manzarasining bir qismini namoyon etadi.

Landshaft kompozitsiyasi hayvon va qush shakllari bilan to'ldiriladi.

MTM darvozasi yonida joylashgan tepalik barcha mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib oladi!

Yozda uni chaqnoq tepalik deyish mumkin: gul yaproqlari kamalak rangida tovlanadi. Tepalikda juda ko'p o'simliklar va chiroyli toshlar bor.

#### 4-obyekt. "Suv havzasi"

Taxminiy ko'rinish:



Ochiq havoda barpo etilgan sun'iy suv havzasi.

Suv, suv yuzasida hasharotlar (hududdan kelib chiqqan holda), boshqa mayda hasharotlar, namlikni yoqtiradigan gullar ekilgan nam joylar bo'lishi mumkin. Bularning bari bolalar kuzatuv uchun obyekt hisoblanadi.





## 5-obyekt. “Yashil dorixona”

Tabiatdagi barcha o'simliklar inson foydasi uchun yaratilgan, insonning vazifasi esa uning ahamiyatini tushunishdan iborat, xolos. Chunki yashil olamning bari o'ziga xos yashil dorixonadir.

Kuzatuv obyektlari:

- Yalpiz
- Mavrak
- Zubtutum
- Ko'ka.
- Rayhon.

Yashil dorixona bolalarga dorivor giyohlarning xilma-xilligi va ularning biologik xususiyatlari bilan tanishtirish uchun yaratiladi.

Tabib-giyohlarning o'sishi va yetilish bosqichlarini bo'yicha kuzatish olib borish, ularni salomatlik uchun ahamiyati haqidagi bilimlarni mustahkamlash, “yashil dorixona” giyohlarini yig'ish va quritish qoidalarini o'rganish.

### Taxminiy ko'rinish:



## 6-obyekt. "Gulzor"

Gullar odamlarga doimiy quvonch va estetik zavq bag'ishlovchi o'simliklardir. Ular nafaqat kayfiyatimizni ko'taradi, balki inson energetikasini ham yaxshilaydi. O'simliklar barchamizni yashilligi, gulg'unchalari bilan quvontiradi, biz har doim zavq bilan ularni tomosha qilamiz.

Bolalar turli-tuman gullarning o'sishini kuzatishlari, taqqoslashlari, urug' paydo bo'lishini tomosha qilishlari mumkin.

### Taxminiy ko'rinish:





## 7-obyekt. "Hasharotlar"

MTM hududida "Hasharotlar obyektini" ham nazarda tutish mumkin. Ekologik so'qmoqning bu obyektida hasharotlarni jalb etadigan maydon, bolalar bilan sayrda ularni kuzatish imkonini beruvchi anjom, hasharotlarni aniqlovchi rasmlar bor.

Bolalar hasharotlarning xususiyatlari va tabiatdagi o'rni bilan tanishadilar.

### Taxminiy ko'rinish:



## 8-obyekt. “Teraklar xiyoboni” yoki “Daraxtlar xiyoboni”

Terak – joy tanlamaydigan, barcha fasllarda birdek chiroyli daraxt. Daraxtning olachiporligi qismlarga bo‘lingan ko‘rinish kasb etadiki, natijada ko‘z dam oladi, tejamkor tartibda ishlaydi

Taxminiy ko‘rinish:





## 9-obyekt. “Tabiat laboratoriyasi”

Sayr uchun ajratilgan maydonchada suv va qum markazi obyektlari bor. Suv va qum markazi qumdon, kichik hovuz, turli o'lcham va hajmdagi shakllar va idishlar bilan jihozlangan. Issiq vaqtda bu yerda bolalarning bilim va tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishini orttirish uchun o'yinlar, suv va qum bilan tajribalar o'tkazish mumkin. Bundan tashqari, qum o'ynash bolalarning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: jizzakilik, tajovuzkorlik, yig'loqilikni bartaraf etib, fantaziyani rivojlantiradi.

Suv o'ynash ijobiy hisslarni chaqiradi, bolalarning ichki erkinligiga sabab bo'ladi, tonusni kamaytirib, barmoq va qo'l panjalarining kuchlanishiga yordam beradi, ularning ishchanligini oshiradi; qo'l bilan, predmetlar bilan turli harakatlar qilish qobiliyati va ilmini shakllantirishda yangi imkoniyatlarga asos bo'ladigan faol harakatlar hajmini ko'paytiradi.

### Taxminiy ko'rinish:



## 10-obyekt. “Qushlar shaharchasi”

Obyektda mayda hasharotlar bilan oziqlanuvchi (chumchuq, qaldirg'och va b.) qushlar uyalashi uchun inlar, donxo'rak va sug'orgichlar, shuningdek, sayr payti bolalar qushlarni kuzatishi uchun maxsus qurilgan chug'urchuq uyalari o'rnatiladi.

Inlar yasashda ularning o'lchamlarini to'g'ri olish muhim sanaladi, aks holda, qushlar u yerda yashamaydi. Qishlovchi qushlar uchun oxurlar ilinadi. Bolalar mustaqil yoki kattalar yordami bilan oxurlarni tekshirib turishlari, yangi yemish solishlari, qushlarni kuzatishlari, odatlari, hayot tarzlari bilan tanishishlari mumkin.

### Taxminiy ko'rinish:





## 11-obyekt. "Tomorqa"

Tomorqa ochiq va yorug'lik yaxshi tushadigan joydagi obyekt.

MTM dagi tomorqa o'simlik olami bilan yaxshiroq tanishishga yordam beruvchi kuzatuvchanlik va qiziquvchanlikning rivojlanishiga yordam beradi.

U bolalardagi o'simliklarning tirik organizmlar ekanligi, o'sishi va rivojlanishi uchun kerakli sharoitlar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Bolalardagi estetik tuyg'ularni rivojlantiradi, yetishtirilayotgan o'simliklarning go'zalligidan bahra olish fazilatini va o'z mehnati samarasini baholashga yordam beradi.

Bolalarda O'zbekistonda yetishtiriladigan madaniy tomorqa o'simliklari (pomidor, loviya, no'xot, piyoz, sabzi, rediska, lavlagi, kartoshka, qovoqcha, ukrop, petrushka) haqidagi bilimlar ortadi va umumlashtiriladi.

Bolalar ularni parvarishlash borasidagi bilimlarga ega bo'ladilar, sabzavotlarning inson hayoti uchun ahamiyati haqida tasavvurlar shakllanadi.

### Taxminiy ko'rinish:



## 12-obyekt. "Issiqxona"

"Issiqxona"ga tashrif buyurgan bolalarni uning yaratilishi bilan tanishtiradilar, nimadan yasalgani, nima uchun kerakligi va qanday ishlashi haqida gapirib beradilar.

Bolalar o'simliklar qanday sharoitda o'sishi, ularni qanday parvrish qilish, tez avj olishi uchun nimalar kerakligi haqida bilib oladilar. Kattalar yordami bilan bolalar o'simlik va gul urig'larini ekadilar, sabzavotlarni parvarishlab, ularning o'sishi va rivojlanishini qiyoslaydilar, shuningdek, hosilni yig'ib oladilar.

### Taxminiy ko'rinish:





### 13-obyekt. “Ertaknamo karvonsaroy”

“Ertaknamo karvonsaroy” kichik me’moriy shakllar: quduq, hovli ho’jayini va bekasi, shuningdek, hayvonlardan (toychoq, g’oz, tovuq va b.) ni o’z ichiga oladi. Bularning bari bolalar dunyoqarashini kengayishiga, ekologik ta’lim va tarbiyaga yordam beradi.

Bolalar uy hayvonlari va xonaki qushlar, ularning tashqi ko’rinishidagi xususiyatlari, harakat usullari, odatlari, qanday oziqlanishi, insonga qanday foyda keltirishi bilan tanishadilar. Uy hayvonlarining ta’minoti va ozuqasi, ularning hayoti inson bilan chambarchas bog’liqligi haqida tasavvurlarga ega bo’ladilar.

#### Taxminiy ko’rinish:



## 14-obyekt. "Salomatlik so'qmog'i"

"Salomatli so'qmog'i"ga tabiiy materiallardan yasalgan, kichik kesmalar shaklidagi, turli fakturali tabiat materiallari bilan qoplangan bo'lishi mumkin.

Bular aylana qirqimli taxtachalar, yirik va mayda shag'al, qum, suv husoblanadi.

Tabiiy materiallar bilan mashqlarni bajarish bolalarning jismoniy kuchi, tananing egiluvchanligi, harakatlar koordinatsiyasini rivojlanishiga yordam beradi.

"Salomatlik so'qmog'i" profilaktika o'tkazish va bolalar salomatligini o'yin shaklida to'g'rilash imkonini beradi.

### Taxminiy ko'rinish:





## 15-obyekt. "G'aroyib to'nkalar olami"

Har xil ko'rinishdagi to'nkalarga ham e'tibor qilish zarur, chunki ular bolalar uchun kuzatuv predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Taxminiy ko'rinish:





## 16-obyekt "Shoxdevor"

Shoxdevor – bu yaxlit devor hosil qilib, chirmashib o'sadigan o'simliklar qatori. Hududda undan ichki to'siqlar sifatida, masalan, ho'jalik imoratlarini ko'zdan pana qilish, hordiq chiqarish burchagini ajratish uchun foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, shoxdevor avtotransportning zaharli tutunlari va shovqidan himoya qilib, havoni changdan tozalaydi, hududda o'ziga xos mikroiklim yaratishga yordam beradi.

Shoxdevor hosil qilish uchun ko'p yillik o'simliklar: yovvoyi uzum, qulmoq, pechakdan foydalaniladi.

Taxminiy ko'rinish:



## 17-obyekt. “YHX va velosiped yo’lagi”

MTM hududidagi obyekt “Chorraha” sifatida ko’riladi, unga ajratuvchi chiziqlar, piyodalar o’tish joyi, velosiped yo’lkasi kabi belgilar qo’yib chiqilgan bo’ladi.

Ekologik so’qmoqning bu obyektida bolalar yo’lka bo’ylab harakatlanish, piyodalar joyidan kesib o’tish, harakatning chap va o’ng tarafga, svetofor signallariga rioya qilib, velosiped, samokat, yugurish velosipedida uchadilar.

Bolalarda yo’llardagi xavfsizlik qoidalariga ongli ravishda amal qilish, yo’l belgilari bilan tanishish, savodxon piyoda va velosipedchini tarbiyalash, yo’l harakati qoidalarini o’rganishga bo’lgan qiziqishni saqlab qolish tarbiyalanadi.

### Taxminiy ko’rinish:



### **3-ilova. Ekologik so'qmoqdagi taxminiy axloq qoidalari**

Ilovada bolalar, ularning ota-onalari va pedagoglarning ekologik so'qmoqdagi axloq qoidalari keltiriladi. Bu qoidalarni bolalar bilan birgalikda qayta ishlash, to'ldirish, muhim bo'lmagan joylarini olib tashlash tavsiya etiladi, shunda ular muhim ahamiyat kasb etib, bolalar ham unga rioya qiladi.

#### **Taxminiy axloq qoidalari:**

- So'qmoq ho'jayini bilan salomlashing!
- Ortiqcha shovqinlarsiz yurib o'ting. So'qmoqda yashovchilarga halaqit bermang.
- Qushlar sayrashi va tabiatning boshqa tovushlaridan bahra oling.
- O'simliklarni asrang, shoxlarni sindirmang, hasharotlarni tutmang.
- Tozalikka rioya qiling.
- Axlatlarni maxsus chiqindi idishiga tashlang!
- Kuzating, zavq oling, fikrlang.
- Tabiatni asrang!
- Tabiat suvenirlarini – MTM ekologik so'qmog'idagi chiroyli toshlarni olib ketmang.
- Olgan bilim va taassurotlaringiz va xush kayfiyatingizni do'stlaringizga ham ulashing.

## Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Qayd etish № 3032, 03.07.2018-y.
2. Grosheva I., Yevstafyeva L., Maxmudova D., Nabixonova Sh., Pak S., Nazarova V. G.,
3. Abdunazarova N., Isxakova M., Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Ilk qadam»
4. Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr 3.2. bob, Toshkent-2022.
5. Grosheva I.V., Shivaldova N.S., Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova E.A., Xaziyeva L.Z.// "Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz"//Toshkent-2022.
6. Beshko N.Yu. //Ekologik so'qmoq// O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma//Toshkent-2010.